

Pedagogical significance of historical and fictional books in the development of personal qualities of future teachers

Mavluda KADIROVA¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 July 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

25 August 2024

Keywords:

future pedagogue,
personal qualities,
artistic and historical
works,
approach,
literature.

ABSTRACT

The development of personal qualities in future educators through pedagogy and psychology influences their professional success, effectiveness in the educational process, and engagement in social life. Historical and fictional books play a significant role in shaping these personal qualities, as they provide valuable educational insights and aid in moral, cultural, and intellectual development. This article lists historical-fictional books on specific topics recommended for future educators to read, highlighting how these works contribute to personal growth. The pedagogical significance of these literary works in fostering personal development is also explored.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp255-262>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Bo'lajak pedagoglarning shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda tarixiy-badiiy asarlarni pedagogik ahamiyati

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

bo'lajak pedagog,
shaxsiy sifatlar,
badiiy-tarixiy asarlar,
yondashuv,
adabiyotlar.

Pedagogika va psixologiyada bo'lajak pedagoglar uchun shaxsiy sifatlarining rivojlanishi ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatiga, ta'lim jarayonida samaradorlikka va ijtimoiy hayotda faollikka ta'sir ko'rsatadi. Bo'lajak pedagoglar uchun shaxsiy sifatlarini rivojlantirishda badiiy va tarixiy asarlarning o'rni katta bo'lib, ular tarbiyaviy ahamiyatga ega ma'lumotlarni chuqur anglash va ulardan foydalangan holda axloqiy, madaniy va intellektual jihatdan shakllanishga yordam beradi. Mazkur maqolada bo'lajak pedagoglarda badiiy-tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadida mutolaa qilish uchun

¹PhD Student, Namangan State University. E-mail: mavludaqodirova@gmail.com

muayyan mavzudagi tarixiy-badiiy asarlarni ro'yxati keltirilgan hamda ushbu asarlarning shaxs kamolotidagi pedagogik ahamiyati ochib berilgan.

Педагогическое значение исторических и художественных произведений в развитии личностных качеств будущих педагогов

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:
будущий педагог,
личностные качества,
художественно-
исторические
произведения,
подход,
литература.

Развитие личностных качеств будущих педагогов в рамках педагогики и психологии оказывает влияние на их будущую профессиональную успешность, эффективность в образовательном процессе, а также активность в общественной жизни. Художественно-исторические произведения играют важную роль в этом развитии, помогая глубже осознать педагогически значимую информацию и применять её для нравственного, культурного и интеллектуального формирования. В данной статье представлен список художественно-исторических произведений на определённую тему, рекомендованных для чтения будущим педагогам с целью развития их личностных качеств. Также раскрывается педагогическая значимость этих произведений в процессе формирования личности.

KIRISH

Dunyoda inson shaxsiy sifatlarini o'zida rivojlantira olgan, har tomonlama aqliy, axloqiy, jismoniy, ruhiy tayyorgarlikni o'zida mujassam etgan yoshlarni tayyorlash va ta'lim va tarbiya tizimiga integrativ yondashuv tamoyillari asosida ta'limning sifat ko'rsatkichlarini takomillashtirishga oid ilmiy yirik loyihalar amaliyotga tadbiq etilmoqda. Jahon tarixiy tajribasi barcha davrlarda oliy ta'lim muassasalarida talabalarida badiiy-tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirish doirasida yoshlar o'rtasida g'oyalari targ'ib etisho'ziga xos dolzarblik kasb etadi.

Respublikamizda so'nggi yillarda xalqaro tajribalarga tayangan xos bo'lgan mahorat va ko'nikmalar, barkamol shaxsga oid intellektual sifatlar mujassam bo'lgan shaxsiy tarkibni shakllantirish uchun xizmat qilmoqda. Uchinchi Renessans davriga qadam qo'ygan mustaqil Yangi O'zbekistonda milliy g'oya va mafkura, mustaqillik g'oyalarini aholining keng qatlamlari ongiga singdirish, ta'lim, madaniyat, san'at, ma'naviy-ma'rifiy ishlar targ'iboti masalalariga alohida e'tibor qaratish, yuksak ma'naviyatli barkamol shaxslarni tarbiyalashni davlat siyosati yo'nalishlarining biri sifatida ahamiyat berib kelinmoqda. Har bir tizim va jarayonni muvaffaqiyatli rivojlanishida albatta ma'lum pedagogik shart-sharoit va omillar, vositalar, shakllar o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi [1]. Pedagogik tizimning samarali faoliyat yuritishini kafalotlovchi shartlarning turli guruhlar mavjud bo'lib, ular: tashkiliy-pedagogik, psixologik-pedagogik va didaktik o'ziga xos xususiyatlaridir.


Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak pedagoglarda shaxsiy sifatlarini rivojlantirishning tarixiy-badiiy adabiyotlardan mavzu mohiyatini yoritishda ta'lim

jarayonida, talabalarda muayyan ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish yoki rivojlantirishda ma'rifiy ishlar jarayonida foydalaniladi. Tarixiy-badiiy asarlarning ta'sirchanligi ularning qanchalik to'g'ri tanlanganiga bog'liq. Mutolaa uchun badiiy asarlarni tanlash nafaqat bolalar, hatto kattalar uchun ham qiyin kechadi. Shu bois bu jarayonda, tajribali, jahon va o'zbek adabiyotining eng sara namunalaridan yaxshi xabardor mutaxassislar, pedagoglarning metodik yordamiga, pedagogik maslahatiga ehtiyoj seziladi.

ASOSIY QISM

Tadqiqot jarayonida bo'lajak pedagoglarda badiiy-tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarni rivojlantirish maqsadida tashkil etiladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar va shu bilan bir qatorda o'quv rejali mashg'ulotlardan keyin mutolaa qilish uchun muayyan mavzudagi tarixiy-badiiy asarlarni ro'yxatini tuzildi va tanlangan asarlarni klassifikatsiya qilindi va badiiy adabiyotlarni to'g'ri tanlashga qo'yiladigan yuqorida ta'kidlangan talablar ajratib olindi.(1- rasm)

Badiiy adabiyotlarni to'g'ri tanlashga qo'yiladigan quyidagi talablar ajratib olindi. 1- rasmga qarang:



1-rasm. Tarixiy-badiiy asarlar vositasida talabalarda shaxsiysifatlarini rivojlantirish uchun tarixiy- badiiy adabiyotlarni to'g'ri tanlashga qo'yiladigan talablar

Nazariy tahlil, oliy ta'lim muassasasi amaliyotini o'rganish va tahlil qilish asosida tarixiy-badiiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning samaradorligini ta'minlashga quyidagi: Akmeologik yondashuv, Tarixiy yondashuv, Muammoli yondashuv, Interfaol yondashuv, Sinergetik yondashuv, Aksiologik yondashuv yondashuvlar ustuvor o'rin tutadi.

So'nggi yillarda tarixiy-badiiy asarlarni umumiy nom bilan "tarixiy belletristika" deb atash urfga kirmoqda. Garchi, ushbu atama XIX boshlarida V.G.Belinskiy tomonidan fransuzcha "belles lettres" ("nafis adabiyot", "yengil adabiyot") tushunchasini qo'llash

orqali rus tili [3], ushbu til orqali esa o'zbek tili iste'moliga kiritilgan bo'lsa ham amaliyotda ko'p ham ommalashmagan edi.

Bugungi kunda tarixiy mavzularda yaratilgan badiiy adabiyotlarni "belletristika" (ba'zan "tarixiy belletristika") deb nomlash ommalashdi. Ayni o'rinda e'tirof etib o'tish joiz, belletristik asarlarning "mumtoz adabiyot", "omma adabiyoti" ("omma uchun mo'ljallangan adabiyot") tushunchalari bilan chalkashtirish holatlari ko'zga tashlanmoqda.

Tadqiqotni olib borish davrida aynan, omma xususan talabalar uchun tanish bo'lgan tarixiy-badiiy asarlar namunalari saralab olindi va ularning yaratilish xronologiyasi tuzildi. Xronologiyani tuzishda asarlar yaratilgan yillar emas, balki ularda yoritilgan tarixiy voqealar sodir bo'lgan davrlar inobatga olindi 1-jadvalga qarang:

1-jadval:

Tarixiy-badiiy asarlar xronologiyasi


№	Asar muallifi	Asarning nomlanishi
1	2	3
I. O'zbek davlatchiligining shakllanishi va dastlabki taraqqiyot bosqichlari davri aks ettirilgan ilmiy-tarixiy, tarixiy-badiiy adabiyotlar		
1.	Mirkarim Osim	"To'maris", "Shiroq", "O'tror", "Aleksandr va Spitamen"
2.	Sarigul Bahodirova	"To'maris va Kir"
3.	Ibrohim Yusupov	"To'maris"
4.	Vasiliy Yan	"Shiroq", "Qo'rg'on uzra olovlar"
5.	Maqsud Qoriyev	"Ezgulikka intilib", "Spitamen" ("So'g'd o'g'loni"), "Tog'dagi gulxanlar"
6.	Sharofiddin Ali Yazdiy	"Zafarnoma"
7.	Xurshid Davron	"Massagetlar malikasi va forslar podshohi"
II. O'zbek davlatchiligi, mug'ullar istilosi, temuriylar davri aks ettirilgan ilmiy-tarixiy, tarixiy-badiiy adabiyotlar		
1.	Amir Temur	"Temur tuzuklari"
2.	Hamid Olimjon	"Muqanna"
3.	Sadriddin Ayniy	"Muqanna isyoni"
4.	Baxtiyor Abdug'afur	"Sulton Jaloliddin Manguberdi"
5.	Maqsud Shayxzoda	"Jaloliddin Manguberdi"
6.	Mirmuhsin	"Temur Malik", "Jaloliddin va Oyto'lin", "O'tror", "Xo'jand qal'asi"
7.	Olimjon Bo'riyev	"Amir Temur"
8.	Marsel Brion	"Menkim, Sohibqiron jahongir Temur" F.Ro'ziyev, F Tilovatov tarjimalari
9.	Ibroxim Mo'minov	"Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va ahamiyati"
10.	Hamdam Sodiqov:	"Amir Temur saltanatida xavfsizlik xizmati"
11.	Poyon Ravshanov	"Amir Temur sulolasi", "Temuriylar silsilasi"
12.	Muhammad Ali	"Ulug' Saltanat"
13.	Odil Yoqubov	"Avlodlarga vasiyat"
14.	To'ra Mirzo	"Amir Temur"

15.	Ma'ruf Jalil	"Sohibqiron"
16.	Asror Samad	"Sohibqiron Temur"
17.	Bo'riboy Ahmedov	"Amir Temur"
18.	Ibrohim Mo'minov	"Amir Temur O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli"
19.	Kristofer Marlo	"Sohibqiron Temur" (Ma'ruf Jalil tarjimasi)
20.	Abdulla Oripov	"Sohibqiron"
21.	Erkin Samandar	"Narshah qalasi"
22.	Lyusyen Keren	"Amir Temur saltanati" (Bahodir Ermatov tarjimasi)
23.	Nizomiddin Shomiy	"Zafarnoma"
24.	Zahiriddin Muhammad Bobur	"Boburnoma"
25.	Pirimqul Qodirov	"Yulduzli tunlar"
III. Milliy ozodlik harakati, jadidchilik va mustamlakachilik davri aks ettirilgan ilmiy-tarixiy, tarixiy-badiiy adabiyotlar		
1.	Ernest Xemenguey	"Alvido qurol" (Ibrohim G'afurov tarjimasi)
2.	Alinazar Egamnazarov	"Siz bilan Dukchi Eshon"
3.	Erkin Zohidov	"Xorazm Fojiasi"
4.	Boymirza Xayyit	"Turkistonda jadidchilik va uning tugatilishi"
5.	Tohir Malik	"So'ngi o'q"
6.	Mahmudxo'ja Behbudiy	"Saylanma", "Padarkush"
7.	Fitrat	"Amir Olimxonning hukmronlik davri", "Buxoro vaziri Nasrullohbey parvonachiga ochiq maktub", "Johilona taassubg'a misol", "Muxtoriyat", "Siyosiy hollar", "Buxoro ulamosi", "Sho'royi islomiya" ning xatosi", "Musulmonlar, g'ofil qolmang!", "Buxoroda inqilob", "Angliz va Turkiston", "Turkistonda ruslar", "Buxoroning holi" maqolalari
8.	Abdulla Avloniy	"O'liklar", "Pinak", "Biz va siz", "Bo'ron", "Vatan", "Millatga xitob", "Maqsad va maslak", "Xolimizga doir"
9.	Hamza Hakimzda Niyoziy	"Kim to'g'ri?", "Tuhmatchilar jazosi", "Boy ila xizmatchi", "Ishchilar hayotidan", "Loshmon fojiasi", "Farg'ona fojiasi", "Qizil qon ichida yosh go'daklar", "Mahbus to'raning holi", "Zaharli hayot", "Pastki sho'rolar saylovi munosabati ila yozilg'on Cho'pcharlar", "Pastki sho'rolar tuzmasida saylovg'a kirolmagan bir eshon o'pkasiga javoban", "Burungi saylovlar"
10.	Furqat Zokirjon Holmuhammad o'g'li	"Muxammas Muhammad Xudoyorxon tilidan", "Ilm xosiyati", "Akt majlisi xususida", "Toshkent shahrida bo'lg'on nag'ma bazmi xususida", "Vistavka xususida"
IV. Ikkinchi jahon urushi yillari davri aks ettirilgan ilmiy-tarixiy, tarixiy-badiiy adabiyotlar		
1.	Asqad Muxtor	"Davri mening taqdirimda"
2.	Musa Jalil	"Okopdan xat"

3.	Rahmat Fayziy	“Sen yetim emassan”
4.	Shukrullo	“Kafansiz ko‘milganlar”
5.	Uyg‘un	“Vatan haqida qo‘shiq”
6.	Shuhrat	“Jangchi qabri”
7.	Maqsud Shayxzoda	“Kurash nechun?”
8.	Hamid Olimjon	“Qo‘lingga qurol ol!”, “Bosqinchilarga o‘lim”, “Yigitlarni frontga jo‘natish”, “Jangchi Tursun”, “Roksananing ko‘z yoshlari”
9.	Sulton Akbariy	“Vatan”
10.	Sharof Rashidov	“Tarixning qahr-la qayradim qilich”
11.	Oybek	“Yovga o‘lim”, “G‘alaba qo‘shig‘i”
12.	Sobir Abdulla	“Zafar qasidasi”
13.	G‘ayraty	“Irodamiz yov taqdirini qiladi barbod”
14.	G‘ofur G‘ulom	“Kuzatish”
15.	Hamid Olimjon, Uyg‘un, Sobir Abdulla	“Irodamiz yov taqdirini qiladi barbod”
16.	Komil Yashin	“Bosqinchilarga o‘lim”, “General Rahimov”
17.	O‘zbek sovet Ensiklopediyasi	“Shaxsiynoma”
18.	Abdulla Qahhor	“Oltin yulduz”
19.	Said Ahmad	“Ufq”
20.	Anvar Ergashev, Yuliy Medvedev	“Bir yuz bir”
V. Mustaqillik yillaridan avvalgi va mustaqillik yillari davri aks ettirilgan ilmiy-tarixiy, tarixiy-badiiy adabiyotlar		
1.	Islom Karimov	“O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida”
2.	Karimberdi To‘ramurod	“Qora kitob”
3.	Said Ahmad	“Jimjitlik”, “Yo‘qotganlarim va topganlarim”
4.	Ahmadjon Meliboyev	“Namangan saboqlari”, ,
5.	Yunusali Sultonov	“Fitna san‘ati”
6.	G‘affor Hotamov	“Oy borib, omon qaytmagan bolam”, “Ular ko‘zyoshlarga ishonmaydilar”
7.	Ahmadjon Isoqov va boshqalar	“Jarohat”

Tarixiy-badiiy asarlar vositasida bo‘ljak pedagoglarda shaxsiy sifatlarni rivojlantirish sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan jarayonni natijali kechishi, eng avvalo, aniq maqsadga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatda ustuvorlik kasb etuvchi tamoyillarning aniq belgilab olishga bog‘liq.

Bo‘ljak pedagoglarda badiiy-tarixiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarni rivojlantirish sifatlarini rivojlantirishda quyidagilar ustuvor tamoyillar deb belgilandi. 2-rasmga qarang:



Shu nuqtai nazardan, ana mazkur maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni tashkil etishda mazkur jarayonda ustuvorlik kasb etadigan tamoyillarni belgilash orqali shaxsiy sifati mavzularidagi tarixiy-badiiy asarlarni o'rganish, talabalarning tarixiy-badiiy asarlarga munosabati, bunday asarlarda shaxs siymosi yoritilgan tarixiy qahramonlarning shaxsiy ko'rsatishga ilhomlantiruvchi harakatlaridan ilhomlanishi, tarixiy qahramonlardan namuna olishga bo'lgan intilishlarini o'rganishga e'tibor qaratiladi.

Shaxs ya'ni asar qaxramrni aks etgan tarixiy-badiiy asarlarni o'rganish, talabalarning asarlarga bo'lgan munosabati, tarixiy qahramonlarning shaxsiy ko'rsatishga undovchi harakatlaridan ilhomlanishi, ulardan namuna olishga bo'lgan intilishlarini o'rganish siyosiy va huquqiy; iqtisodiy; ijtimoiy va madaniy kabi omillar doirasida kuzatildi. Mazkur omillarni belgilashda ma'naviy yo'nalishdagi pedagogik-psixologik mazmunga ega bo'lgan umumiy va xususiy xarakterdagi omillar belgilandi. Ular quyidagilardan iborat: pedagogning tajribasi, ma'naviy-ma'rifiy tadbirning tematikasi (mavzusi), badiiy asarning mazmunan ma'naviy-ma'rifiy tadbir mavzusiga mos kelishi, asarda ilgari surilgan g'oya va qarashlarning ma'naviy-ma'rifiy tadbir ishtirokchilarining ma'naviy ehtiyoji, qiziqishi, xohish-istaklari va dunyoqarashlariga mos kelishi, ta'lim muassasasi axborot-resurs markazi xodimlari tomonidan ko'rsatiladigan tashkiliy-metodik yordam, tashkil etilishidan kamida ikki oy avval ishtirokchilarni tadbir mavzusi, o'qilishi tavsiya etiladigan tarixiy-badiiy asarlar, ahamiyatga olish zarur bo'lgan ma'lumotlardan xabardor qilish, ishtirokchilarning ijtimoiy faolligi kabilar.

XULOSA

Bo'lajak pedagoglarni tarixiy-badiiy asarlar vositasida shaxsiy sifatlarini rivojlantirish maqsadida tarixiy-badiiy asarlari tanlash murakkab jarayon. Bu jarayonning samarali kechishi ana shu maqsadga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatning bosqichma-

bosqich tashkil etilishini taqozo qiladi. Har bir bosqichni tashkil etishda uning samarali kechishini ta'minlaydigan obyektiv va subyektiv omillarni inobatga olish zarur. Zero, shundagina tarixiy-badiiy asarlar vositasida talabalarni shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan tadbirlarning samaradorligi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Akramova, D. (2022). Oliy ta'lim muassalari talabalarida pedagogik-psixologik moslashuvchanlikni mazmun mohiyati. *Science and innovation*, 1(B8), 2150-2153.
2. Berdiyeva, H. B. R. (2021). Bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 886-898.
3. Belinskiy, V. G. (1955). *Polnoe sobranie sochineniy: v 13 tomakh* [The Complete Works: in 13 Vols]. Moscow-Leningrad, The Sciences Academy of The USSR Publ, 6, 799.
4. Muslimov N.A. Kasbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007.
5. Nuriddinovna, Y. K. (2023, December). PEDAGOGIK MAHORAT OQITUVCHINING KASBIY KOMPETENTLIGI ASOSI SIFATIDA. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 12, pp. 516-519).